

AXBOROT SIYOSATINI BAHOLASHDA JAHON MATBUOT ERKINLIGI INDEKSINING AHAMIYATI

Nozima Muratova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Nazira Toshpo'latova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Hamida Mirsultanova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Sadoqat Maxsumova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Mukarram Otamurodova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

E'tiqod Ataqulova,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqlada butun dunyo bo'ylab matbuot erkinligini baholab kelayotgan "Chegara bilmas muxbirlar" tashkilotining Jahon matbuot erkinligi indeksining faoliyati o'rganildi. Indeksning asosiy indekatorlari va ularning mazmun-mohiyati siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, qonuniy va xavfsizlik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Jurnalistlar faoliyatini baholash bo'yicha mamlakatlar reytingini tuzishda qanday metodologiyadan foydalanilyotgani aniqlandi. Indeksning 2023-yilgi xulosalari mintaqaviy kesimda, jumladan, O'zbekiston natijasi haqida ma'lumot to'plandi. Jahon matbuot erkinligi indeksini tuzishni baholab boruvchi mutaxassislar jamoasi haqida ma'lumotlar keltirib o'tildi. Indeks faoliyatiga baho berildi va unda O'zbekiston reytingini oshirish bo'yicha xulosalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: xalqaro indekslar; axborot erkinligi; Jahon matbuot erkinligi indeksi; metodologiya; Chegara bilmas muxbirlar.

DOI:
[https://doi.org/10.62499/
ijmcc.vi.56](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.56)

Iqtibos:
Muratova, Nozima; Toshpo'latova, Nazira; Mirsultanova, Hamida; Maxsumova, Sadoqat; Otamurodova, Mukarram; Ataqulova, E'tiqod. 2024.
AXBOROT SIYOSATINI
BAHOLASHDA JAHON
MATBUOT ERKINLIGI
INDEKSINING AHAMIYATI
International Journal of Media
and Communications in Central
Asia. 5: 4-16.

1. Kirish

Jahon matbuot erkinligi indeksi (The World Press Freedom Index) 2001-yilda tashkil topgan (World-2, 2024) va 2002-yildan beri "Chegara bilmas muxbirlar" (Reporters Without Borders) tomonidan chop etiladigan mamlakatlarning yillik reytingi hisoblanadi (Ruth de Frutos, Diego Giannone, 2018). U har bir mamlakatdagi jurnalistlar faoliyatini tahlil qiladi, axborot tashkilotlari va internet foydalanuvchilari erkinligi darajasini aniqlaydi va amaldorlar tomonidan medianing erkinligiga qay darajada munosabat bildirayotganini o'zida aks ettiradi (Ruth de Frutos, Diego Giannone, 2018).

Tashkilot matbuot erkinligini aniqlash maqsadidagina

faoliyat olib boradi, uning maqsadlari jurnalistika sifati va inson huquqlarining buzilishiga qaratilmagan (World-3, 2023). Mutaxassislar, jurnalistlarning alohida shaxs yoki jamoalarga birikib jamiyat manfaatlari asosida siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy aralashuvlardan mustaqil ravishda, ularning jismoniy va ruhiy tahlidlaridan xoli tarzda yangiliklarni tanlash, tayyorlash va tarqatish qobiliyatini matbuot erkinligi deya ta’rif beradi (Methodology-2, 2023). Tashkilotning 130 ta mamlakatda muxbirlar tarmog‘i hamda 10 ta xalqaro byurolari mavjud. Tashkilot 1985-yilda Fransiyada tashkil etilgan va o‘n yildan so‘ng notijorat tashkilot sifatida ro‘yxatdan o‘tgan (Sapiezynska, 2016). “Chegara bilmas muxbirlar” Fransiya taraqqiyot agentligi orqali hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Ammo daromadining atigi 20 foizi davlat muassasalaridan to‘planadi (The Press, 2023). Undan dunyo bo‘ylab va global OAV erkinligi bo‘yicha axborot to‘playotganda, bir mamlakatdagi umumiyligi vaziyat bo‘yicha tadqiqot olib borayotganda, jurnalistlar xavfsizligi masalalariga murojaat etganda, ommaviy axborot vositalari erkinligi buzilishining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlayotganda va press-relizlar tayyorlashda keng foydalanish mumkin (Schneider, 2014).

Ushbu tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad ham mamlakatlarning xalqaro maydonidagi axborot siyosatini baholashda jahon matbuot erkinligi indeksining rolini aniqlash va tadqiq qilishdan iborat.

2. Usullar va manbalar

Biz mazkur maqolani yozish jarayonida bir qator manbalarga murojaat etdik. Xalqaro indekslarning o‘ziga xos xususiyatlari va faoliyat yo‘nalishlari haqida tadqiqot olib borgan olimlarning kitoblaridan ham foydalanildi (Schneider, 2014). “Filtrlanmagan” yangiliklar xilma-xilligi asosida so‘z erkinligi darajasi ni aniqlash yo‘llari ham bir qator olimlar tomonidan izchil tahlil qilingani aniqlandi (An, Kwak, 2016). Demokratik jarayonlarda matbuot indeksining roli manbalar asosida baholandi (Sapiezynska, 2016). Jahon matbuot erkinligi indeksi tayanuvchi metodologiya bo‘yicha o‘zgarishlarning mohiyati chuqurroq tahlil qilindi (Ruth de Frutos and Diego Giannone, 2018). Jurnalistik surishtiruv o‘tkazishda jurnalist huquqlari va kasb etikasi masalasi ham ilmiy manbalarga tayanib davlat siyosati bilan bog‘liqligi tadqiq etildi (Тошпулатова, 2022). Shuningdek, davlatlar indeksini o‘rganish maqsadida axborot manbalari bilan ishslashda yuzaga keluvchi nizoli holatlar va unga oid so‘rovnama natijalaridan foydalanildi (Mirsultanova, 2022). “Chegara bilmas muxbirlar” tashkilotining an’anaviy Jahon matbuot erkinligi indeksi natijalaridan foydalanildi (World-1, 2022; World-2, 2023). Jahon matbuot erkinligi indeksida amalda bo‘lgan metodologiyaga ham tashkilot

ma'lumotlar portali orqali murojaat etildi (Methodology-1, 2022; Methodology-2, 2023). Jahon medialandshaftida so'z erkinligiga yangi yondashuvlar va ularning milliy mass-mediaga integratsiyalashuvi masalasi ham tadqiqotning asosiy e'tibor markazida bo'ldi (Otamurodova 2023). Jahon matbuot erkinligi indeksining mintaqaviy tahlillarini olib borish maqsadida (World-4, 2023) tarixiy-anan'anaviy, kuzatuv metodlar majmuasidan foydalanildi. Shuningdek, O'zbekiston OAVda axborot manbalari bilan ishlashning huquqiy mexanizmlariga oid o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ham tayanildi. Statistik tahlilni olib borish maqsadida davriy matbuotda e'lon qilingan ma'lumotlarning axborot-tahlili olib borildi (Government, 2023; The Press, 2024).

3. Ilmiy tadqiqot natijasi va muhokama

3.1. Indeks metodologiyasi va uning tarkibiy qismlari

Jahon matbuot erkinligi indeksining maqsadi dunyoning 180 ta mamlakatidagi jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining erkinlik darajasini o'zaro solishtirishdir. Indeks bir kalendar yil, ya'ni yanvardan to dekabr oylarini qamrab oladi. Agar urush, davlat to'ntarishi, jurnalistlarga katta hujum yoki to'satdan o'ta repressiv siyosatning joriy etilishi bilan bog'liq o'zgarishlar sodir etilsa, indeks ma'lumotlari qaytadan yangilanishi ko'zda tutilgan. Jahon matbuot erkinligi indeksi qisman so'rovnomaga asoslanadi. Ayrim manbalarda ma'lumotlarni to'plash usullari sifatida mutaxassilar ham keltirib o'tilgan (World-2, 2023). Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, 2021-yilga qadar u yettita umumiyo mezonga asoslanib tuzilgan. Xususan, media makonda fikrlarni ifodalash darajasini o'lchashga qaratilgan plyuralizm, OAV mustaqilligi, atrof-muhit va o'z-o'zini senzura qilish, mamlakat qonunchiligi, shaffoflik, infratuzilma va suiiste'mollik holatlari tahlil qilingan. Yangi metolodologiya asoslanib, 2022-yilgi indeks natijalari e'lon qilindi (Methodology-1, 2022).

Yangi metolodologiyaga ko'ra ballar beshta alohida toifa bo'yicha baholanadi:

1. Ommaviy axborot vositalarining siyosiy erkinligi, hukumat va mansabdor shaxslarning siyosiy bosim bo'lgan va qtda ommaviy axborot vositalarining erkinliklarini qo'llab-quvvatlash va hurmat qilish darjasini, soha vakillarining mas'uliyatini oshirishda ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash darajasini baholashga qaratilgan siyosiy kontekst. Uni aniqlash uchun 33 ta asosiy va bir qator qo'shimcha savollar tuziladi;

2. Internetda ma'lumotlarning erkin oqimini monitoring qiluvchi, ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari, xususan, huquqbazarliklar uchun jazo choralari, ayrim turdag'i ommaviy axborot vositalariga nisbatan davlat monopoliyasining



mavjudligi va ommaviy axborot vositalarining qay yo'sinda tartibga solinishi hamda ommaviy axborot vositalarining mustaqillik darajasini aniqlovchi qonunchilik bazasi. Uni baholash uchun tuziladigan 25 ta asosiy va bir qator qo'shimcha savollarda jurnalistlar va ommaviy axborot vositalarining senzurasiz, sud sanksiyalarisiz yoki ularning fikr bildirish erkinligini cheklamasdan faoliyat olib borish darjasи, jurnalistlarning ochiq manbalarga murojaat etish imkoniyati va manbalarni himoya qilish qobiliyati, jurnalistlarga nisbatan zo'ravonlik harakatlarida aybdor shaxslarning jazosiz qolishi masalalarini baholashga ham e'tibor qaratiladi;

3. Hukumat siyosati bilan bog'liq iqtisodiy cheklovlar (jumladan, OAVni tashkil etishning murakkabligi, davlat subsidiyalarini taqsimlashda tarafkashlik va korrupsiya), nodavlat ishtirokchilar (reklama beruvchilar va tijorat sheriklari) bilan bog'liq iqtisodiy cheklovlar, o'z biznes manfaatlarini ilgari surish yoki himoya qilishga intilayotgan OAV egalari bilan bog'liq iqtisodiy cheklovlarni baholashga qaratilgan iqtisodiy kontekst. Uni aniqlash uchun 25 ta asosiy va bir qator qo'shimcha savollar tuziladi;

4. Gender, sinfiy, etnik va din kabi masalalarga asoslangan matbuotni qoralash va bosimlar ostida yuzaga keladigan ijtimoiy cheklovlar, jurnalistlar faoliyatiga aralashish yoki ayrim masalalarni yoritmaslik borasida tazyiq o'tkazish, jurnalistlarning muayyan masalalarni yoritishida o'z-o'zini senzura qilish holatlarni aniqlovchi ijtimoiy va madaniy kontekst. Uni baholash uchun 22 ta asosiy va bir qator qo'shimcha savollar tuziladi;

5. Jurnalistga jismoniy shikast etkazish (shu jumladan qotillik, zo'ravonlik, hibsga olish, g'oyib bo'lish, va o'g'irlash), qo'rqtish, majburlash, ta'qib qilish, kuzatuv, doksing (shaxsni ma'lumotlarni yomon niyat bilan e'lon qilish), qadr-qimmatni kamsituvchi harakatlarni sodir etish, tuhmat va jurnalistlar yoki ularning yaqinlariga qaratilgan boshqa tahdidlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan psixologik yoki hissiy bosimlar, kasbiy tahdidlar (masalan, ishini yo'qotish, professional uskunalarini musodara qilish yoki qurilmalarni talon-taroj qilish), jurnalistlarning axborot tarqatuvchi sifatida tazyiqqa uchrashi, jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazilishi, soha vakillarining xavfsizligini baholashga qaratilgan xavfsizlikka aloqador holatlar kabilar. Uni aniqlash uchun 22 ta asosiy va bir qator qo'shimcha savollar tuziladi.

Yuqoridaq vazifalarni izchil tahlil etish maqsadida yuzdan ortiq savollar tuziladi va to'plangan javoblar tahlil qilinib umumiyligi natijalar baholanadi (World-4). So'rvonoma "Chegara bilmas muxbirlar" tashkilotining hamkor tashkilotlariga, xususan, so'z erkinligi bo'yicha faoliyat olib boruvchi 18 ta nodavlat notijorat tashkilotlari, ularning dunyo bo'ylab 150 ta muxbirlariga, shuningdek media sohasida chuqurroq tahlil olib boruvchi tadqiqotch-

ilar jamoasiga, huquqshunoslar yoki huquq faollariga yuboriladi (World-3, 2023). Tashkilot xodimlari muntazam jurnalistlarning faoliyati bilan bog‘liq huquqbazarliklarni aniqlab boradi. Barcha respondentlar o‘zлari baholagan mamlakatda istiqomat qilishadi. Ammo mamlakatdagi xorijiy muxbirlarda ham so‘rovnoma da ishtirok etish imkonи mavjud. To‘ldirilgan anketalar soni mamlakatlar miqyosida bir-biridan farq qiladi. Misol uchun ayrim Afrika mamlakatlarida birdan beshgacha, Germaniyada taxminan yigirma yoki Fransiyada ellik nafar respondentgacha bo‘lishi mumkin (The Press, 2023).

“Chegara bilmas muxbirlar” tashkilotining Jahon matbuot erkinligi indeksi bo‘yicha loyiha koordinatori Antuan Xerining ta’kislashicha, indeksning o‘ziga xos xususiyati juda katta masshtabda so‘rovnoma o‘tkazilishidadir. Ular ochiq ma’lumotlar bazasidan foydalanadi. Bu esa ko‘p tilli, ammo kuchli himoyaga ega bo‘lgan axborot xavfsizligini talab etadi. Shuningdek, indeksni baholashda matn sifatiga e’tibor qaratilmaydi, axborot mamlakat bo‘ylab tarqatilayaptimi yoki yo‘qligini aniqlovchi faoliyatga baho beriladi (Schneider, 2014).

3.2. *Indikatorlarni aniqlash*


Matbuot erkinligi indeksi bir nechta indikatorlar asosida mamlakatlardagi mavjud vaziyatni 100 ballik tizimda baholashga asoslanadi (Europe, 2023). Unga ko‘ra, 100 ball eng yuqori ball (matbuot erkinligining mumkin bo‘lgan darajasi) va 0 eng past ball hisoblanadi. Ushbu ball ikki komponent asosida hisoblanadi:

1. Ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning faoliyati bilan bog‘liq huquqbazarliklarning miqdoriy hisobi;
2. 24 tilda mavjud bo‘lgan so‘rovnoma da matbuot erkinligi bo‘yicha mutaxassislarning (jumladan, jurnalistlar, tadqiqotchilar, akademiklar va huquq himoyachilar) javoblari asosida har bir mamlakat yoki hududdagi vaziyatni sifatli tahlil qilish. Matbuot erkinligi xaritasi indeksdagi barcha mamlakatlar ballarining vizual ko‘rinishini taqdim etadi. Tashkilot aniqlangan ballar asosida har bir mamlakatni toifalashtiradi: “yaxshi vaziyat”, “qoniqarli vaziyat”, “e’tiborga molik muammolar”, “qiyin vaziyat” yoki “juda jiddiy vaziyat”.

Ranglar va tasniflar quyidagicha belgilanadi (World-5):

1. yashil rangda belgilangan davlatda vaziyat yaxshi – 85–100 ball;
2. sariq rangda belgilangan davlatda vaziyat qoniqarli – 70–85 ball;
3. och to‘q sariq rangda belgilangan davlatda vaziyat muammoli – 55–70 ball;
4. olovrangda belgilangan davlatda vaziyat qiyin – 40–55 ball;

5. to‘q qizil rangda belgilangan davlatda vaziyat juda jiddiy 0–40 ball. (1-rasm)



(1-rasm)

3.3. Mutaxassislar jamoasi tarkibi haqida ma'lumot

2020-yildan beri Indeks metodologiyasini qayta ko‘rib chiqishga yordam beradigan mutaxassislar yetti kishidan iborat tarkibda faoliyat olib boradi. Xususan, Myunxendagi Lyudvig Maksimilian universitetining Aloqa tadqiqotlari va media tadqiqotlari bo‘limining qiyosiy tadqiqot direktori, global jurnalistika madaniyati va qiyosiy metodologiya bo‘yicha mutaxassisni Tomas Xanitzsh, “Reuters” jurnalistikani o‘rganish institutining sobiq direktori va tashkilotningning Buyuk Britaniya boshqaruv kengashi a’zosi, katta ilmiy xodim Devid Levi, Mayami universiteti Jurnalistika va media menejmenti kafedrasi professori va Miami Herald, “Washington Post” va “Maclean’s” gazetalarining sobiq jurnalisti Salli Xyuz, Keyptaun universitetining Media tadqiqotlari professori va Afrika jurnalistikasini o‘rganish muharriri Herman Vasserman, jurnalist, “Deutsche Welle Akademie” tadqiqot va baholash bo‘limi rahbari va “Global media erkinligini o‘lchash” muallifi Laura Mur, “Chegara bilmas muxbirlar” tashkiloti bosh direktorining o‘rnbosari Tibo Bruttin, Jahon matbuot erkinligi indeksi rahbari (Nalini Lepetit-Chella va Prem Samidan keyin) Blansh Mares (Methodology-2, 2023).

3.4. Mintaqaviy tahlilni amalga oshirish usullari

Har yili yangilanib turadigan hududiy tahlillar har bir nashrning tendensiyalarini yoritib beradi va qo‘sishma ma'lumotlarni taqdim etadi. Indeksdagi 180 ta davlatning har birining joylashuvi va matbuot erkinligi holati, shuningdek, veb-saytda maslahat olish mumkin bo‘lgan mamlakat profillarida batafsil bayon etiladi. Sayt axborotni global va mintaqaga ko‘ra taqdim etadi. Unga asosan axborot 5 ta mintaqaga taqsimlanadi va tahlil qilinadi (Methodology-2, 2023): Afrika, Amerika, Osiyo-Tinch okeani, Yevropa va Markaziy Osiyo, O‘rta Sharq va Shimoliy Afrika. (2-rasm)



(2-rasm)

Tashkilotning 2023-yilgi e’lon qilgan Jahon matbuot erkinligi indeksiga ko‘ra (World-6) reytingdagi so‘nggi uchta o‘rnini Osiyo davlatlari: Vietnam, Xitoy va Shimoliy Koreya egallagan. Reytingda yildan-yilga past baholanayotgan Xitoy eng ko‘p muxbir va sharhlovchilar qamoqqa olingen mamlakat sifatida qayd etilmoqda. Hisobot mualliflari Xitoyni “jurnalistlar uchun dunyodagi eng katta qamoq” deb ta’riflab, kamida yuz nafar jurnalist kasbiy faoliyati uchun qamoqda saqlanayotganini keltirib o’tgan (O‘zbekiston, 2023). Propagandani kuchaytirayotgan yana bir davlat Rossiyadir. U reytingda 164-o‘rinni egallagan. Mazkur natijaga mamlakatning Ukraina janubiy qismida yashovchi ukrainaliklarga bosim qilayotgani ta’sir o‘tkazmoqda . Bundan tashqari, mamlakatdagi bir qator mustaqil nashrlar faoliyati taqiqlangan, faoliyati ma’lum muddatga to’xtatilgan yoki “ayg‘oqchi” nashr sifatida qayd etilgani ham e’tiborga olingen.

AQSH o‘tgan yilgi o‘rnidan uch pog‘ona pastlab, 45-o‘rinni egalladi. Mamlakatda jurnalistlarning jismoniy tazyiqqa uchrash holati qayd etilgan. Xususan, 2022-, 2023-yillarda ikki nafar jurnalist o‘ldirilgan. Indeksda 128-o‘rinni egallagan Meksikada esa jurnalistlarning yo‘qolib qolish holatlari eng ko‘p qayd etilgan. Jumladan so‘nggi 20 yil ichida 28 nafar jurnalist to‘satdan g‘oyib bo‘lgan. Hindiston va Turkiyadagi vaziyat “muammoli” dan “juda yomon” ga aylandi. Hindistonda bu pasayish Bosh vazir Modiga yaqin oligarxlar tomonidan OAVga nisbatan monopolianing paydo qilingani asosiy sabab qilib ko‘rsatilgan. Ammo indeks natijalari may oyida ochiqlanishidan ikki oy oldin mamlakatning Axborot va radioeshittirish vaziri Anurag Thakur Hindiston parlamentining quyi palatasi bo‘lgan Lok Sabhaga yo‘llagan yozma javobida Hindiston tashkilotning indeks natijalariga qo‘shilmasligi va keltiriligan natijalaridan norozi ekanini bayon qilgan (Government, 2023). Turkiyada esa prezident Erdo‘g‘on saylovlар arafasida jurnalistlarni ta’qib qilganlikda ayblanmoqda. Yaqin Sharq

4. Xulosalar



3.5. Jahon matbuot erkinligi indeksining “barometr”i

Tashkilotning joriy yil va avvalgi yillardagi jurnalistlar o‘limi va ularning hibsga olinishi, sudlanishi bilan bog‘liq tahliliy ma’lumotlar keltirib o‘tiladigan “Barometr” nomli bo‘limi mavjud. Garovda saqlangan, qamoqqa olingan, o‘ldirilgan yoki bedarak yo‘qolgan jurnalistlar haqidagi ma’lumotlar har kuni tashkilot rasmiy saytining mazkur bo‘limida yangilanadi (An, Kwak, 2016). Repressiyalar (abuses) – OAV vakillari, jurnalist yoki muxbirlarning fuqaro sifatida huquq va erkinliklari, shaxsiy hayotiga bo‘layotgan tajovuzlar, erkin faoliyat yuritishlarida turli xil sub’yekтив to‘siqlar mavjudligi darajasini aniqlab beradi va 2 ta subindikatorga bo‘linadi: a) jurnalistlar xavfsizligi (journalist’s safety), b) gender tengligi (gender equality)” (Otamurodova, 2023).

Tashkilot ushbu ro‘yxatni tuzishda ularning o‘limi yoki qamoqqa olinishi jurnalistlik faoliyati bilan bog‘liqligini aniqlagan taqdirdagina kiritiladi. Ro‘yxatga ishi bilan bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra o‘ldirilgan yoki qamoqqa olingan jurnalistlar yoki ularning faoliyatiga aloqasi hali tasdiqlanmagan jurnalistlar kiritilmagan, deb izoh beradi. Xususan, jurnalistlarning o‘limi eng ko‘p qayd etilgan yil sifatida 2012-yil tarixda qolgan. Unda 144 nafar jurnalistning o‘limi ro‘yxatga olingan. Joriy yilning yanvar oyidan to hozirgi vaqtga qadar esa 10 nafar jurnalits vafot etgani keltirib o‘tilgan. Shu kunga qadar qo‘lga olinganlar soni esa 544 nafarni tashkil etiladi. Statistikaga ko‘ra, joriy yilning boshidan to hozirga qadar 42 nafar jurnalist hibsga olingan. Shuningdek, mazkur saytda har bir davlatga tegishli bo‘lgan umumi statistika ham keltirib o‘tilgan bo‘lib, unda qo‘lga olingan, sudlangan va yo‘qolib qolgan, uy qamog‘ida bo‘lgan jurnalistlarning jazo muddati va ularning ism-shariflari keltirib o‘tilgan (World-1, 2024). Agar ro‘yxatda birinchi turgan davlat – Afg‘onistonni misol qilib oladigan bo‘lsak jadval quyidagicha ko‘rinishda foydalanuvchiga taqdim etiladi: (1-jadval)

	Afg‘onistonlik jurnalist haqida ma’lumot	Jurnalist faoliyat sohasi	Qanday tartibda repressiyaga uchragan?
1.	Ahmad Amin Rasooli	Afg‘oniston xalqaro televideniysi, xodim	Hibsga olingan 12/07/2023 - Davom etmoqda
2.	Paul Overby	Mustaqil, Boshqa ommaviy axborot vositalari vakillari	G‘oyib bo‘ldi - Majburiy yo‘qolish 01/05/2014 - Davom etilmoqda
3.	Sultan Ali Javadi	Media direktor, Xodim	Hibsga olingan - sudlangan 11/12/2023 - Davom etilmoqda
4.	Abdul Rahul Mohammadi	Xodim	Hibsga olingan - 04/12/2023 - 15/02/2024

	Afg'onistonlik jurnalist haqida ma'lumot	Jurnalist faoliyat sohasi	Qanday tartibda repressiyaga uchragan?
5.	Ehsan Akbari	Xodim	Hibsga olingan - 17/01/2024 - 25/01/2024
6.	Mansoor Nekmal	Bosh muharrir, xodim	Hibsga olingan - 15/02/2024 - 18/02/2024
7.	Sahar Akbari	-	Hibsga olingan - 27/01/2024 - 04/02/2024

So'z va matbuot erkinligi bo'yicha har yili e'lon qilinuvchi xalqaro indekslar jahonda jurnalistikaning keng rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Xususan, "Chegara bilmas muxbirlar" tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilinuvchi Jahon matbuot erkinligi indeksi ham dunyoning deyarli barcha davlatlarini qamrab olgani, ya'ni 180 ta davlat bo'yicha tadqiqot olib borishi, xulosalar ishlab chiqishi bois uni muhim tadqiqot natijalari sifatida yuqori baholash mumkin. Indeks keng qamrovli so'rvnomaga tayangan metodologiyaga asoslangani bois uning axborotlarni to'plash metodini ijobjiy baholash lozim. Biroq mutaxassislar jamoasini yanada kengaytirish, deyarli har bir davlatdan yoki mintaqadan bittadan vakil qabul qilish natijalarning xolisligini ikki karra ta'minlaydi. Jumladan, O'zbekistonda OAVni erkinlashtirish va ularning faoliyatiga hukumat aralashuvidan xoli qilish maqsadida xususiy ommaviy axborot vositalari faoliyatini qo'llab-quvvatlochi tashkilotlariga ko'roq imtiyozlar yaratish maqsadga muvofiq. Bu usul xalqaro maydonda ijobjiy natija bergen. Mamlakatimizda ham bu borada bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangilangan Konstitutsiyada OAV sohasida bir qator o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekistonda so'z va matbuot erkinligini ta'minlash borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan asosiy chora-tadbirlardan biri bu – qonunchilikni yanada takomillashtirish, qonun ijrosini ta'minlash hisoblanadi. Xalqaro so'z va matbuot erkinligi indekslarida mamlakatimiz natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan media huquqi indikatorini yaxshilash uchun milliy qonunchiligidizning OAV faoliyati va so'z erkinligi bilan bog'liq qismalarini xalqaro qonunchilikka moslashtirish zarur. Xususan, yagona axborot siyosatiga tayanuvchi Axborot Kodeksini loyihasini tez-roq qabul qilish va uni amalda joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

Matbuot erkinligi indeksi: O'zbekiston 156-o'rinda. 2020. URL: <https://kun.uz/news/2020/04/21/matbuot-erkinligi-indeksi-ozbekiston-156-o-rinda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F04%2F21%2Fmatbuot-erkinligi-indeksi-ozbekiston-156-orinda>. Date of the application: 25.01.2024.

Mirsultanova, H. 2023. O'zbekiston OAVda axborot manbalari bilan ishlashning huquqiy mexanizmlari. F.f.f.n. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. Avtoreferati. Toshkent. 15-16. URL: <https://library.ziyonet.uz/book/128829>. Date of the application: 05.03.2024.

Otamurodova, M. 2023. Jahon medialandshaftida so'z erkinligiga yangi yondashuvlar va ularning milliy mass-mediaga integratsiyalashuvi. F.f.f.n. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. Avtoreferati. Toshkent. 17.

O'zbekiston matbuot erkinligi reytingida 137-o'ringa tushdi. 2023. URL: <https://kun.uz/news/2023/05/03/ozbekiston-matbuot-erkinligi-reytingida-137-oringa-tushdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F03%2Fozbekiston-matbuot-erkinligi-reytingida-137-oringa-tushdi>. Date of the application: 18.02.2024.

An, J.; Kwak, H. 2016. Data-Driven Approach to Measuring the Level of Press Freedom Using Media Attention Diversity from Unfiltered News. The Workshops of the Eleventh International AAAI Conference on Web and Social Media AAAI Technical Report WS-17-17: News and Public Opinion. 742. URL: https://www.researchgate.net/publication/315795240_Data-driven_Approach_to_Measuring_the_Level_of_Press_Freedom_Using_Media_Attention_Diversity_from_Unfiltered_News. Date of the application: 23.02.2024.

De Frutos, Ruth & Giannone, Diego. 2018. Methodological changes and challenges in the measurement of freedom of information. An analysis of the Reporters Without Borders and Freedom House indexes », Comunicação e sociedade (Online) 33, 2018.P. 7. Electronic resource: <http://journals.openedition.org/cs/368>. Date of the application: 10.02.2024.

Divya, A. 2023. Government does not subscribe to World Press Freedom Index rankings: Union minister Anurag Thakur. URL: <https://indianexpress.com/article/india/government-does-not-subscribe-to-world-press-freedom-index-rankings-anurag-thakur-parliament-8521062/>. Date of the application: 25.01.2024.

Europe - Central Asia. Uzbekistan. 2024. URL: <https://rsf.org/en/country/uzbekistan>. Date of the application: 25.01.2024.

Methodology-1 used for compiling the World Press Freedom Index. 2022. URL: <https://rsf.org/en/index-methodologie-2022>. Date of the application: 03.03.2024.

Methodology-2 used for compiling the World Press Freedom Index. 2023. URL: https://rsf.org/en/methodology-used-compiling-world-press-freedom-index-2023?year=2023&data_type=general. Date of the application: 26.02.2024.

Mirsultanova, H. 2022. Conflicts with journalists in working with information sources. Asian Journal of research in social sciences and humanities. 12. 4. 62. URL: <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajrssh&volume=12&issue=4&article=012>. Date of the application: 24.02.2024.

- Sapiezynska, E. 2016. Media Freedom Indexes in Democracies: A Critical Perspective Through the Cases of Poland and Chile. International Journal of Communication. 10. 554.
- Schneider, Laura. 2014. Media Freedom Indices: What They Tell Us – And What They Don't. A Practical Guidebook. Deutsche Welle. 19.
- The Press Freedom Index by Reporters Without Borders. 2024. URL: <https://akademie.dw.com/en/the-press-freedom-index-by-reporters-without-borders/a-18250340>. Date of the application: 14.02.2024.
- World-1: abuses in real time. Detail of abuses by year. 2024. URL: <https://rsf.org/en/barometer>. Date of the application: 27.02.2024.
- World-2 Press Freedom Index. 2024. URL: <https://www.unesco.org/en/world-media-trends/world-press-freedom-index>. Date of the application: 20.02.2024.
- World-3 Press Freedom Index. 2024. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/World_Press_Freedom_Index. Date of the application: 10.02.2024.
- World-4 Press Freedom Index-2023: journalism threatened by fake content industry. 2023. URL: <https://rsf.org/en/2023-world-press-freedom-index-journalism-threatened-fake-content-industry>. Date of the application: 05.02.2024.
- World-5 Press Freedom Index. 2023. URL: <https://rsf.org/en/index>. Date of the application: 27.02.2024.
- World-6 Press Freedom Index by Reporters Without Borders. 2023. URL: <https://www.ibanet.org/World-Press-Freedom-Index-2023>. Date of the application: 20.02.2024.
- Тошпулатова, Н. К. 2022. Вопросы совершенствования правовых и этических основ журналистского расследования. 371. URL: https://www.elibrary.ru/ip_restricted.asp?rpage=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D49226456. Дата обращения: 25.02.2024.

Mualliflar haqida:

MURATOVA Nozima Faxritdinovna — filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori; Toshkent, Markaz-5, Kiyot-88; nozima.muratova@jmcu.uz

TOSHPO‘LATOVA Nazira Qurbonovna — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti professori, fan nomzodi (O‘zbekiston, 100027, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Qiyot massivi, 88-uy), toshpolatovanazira81@gmail.com

MIRSLANTANOVA Hamida Alisher qizi — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o’qituvchisi, PhD (O‘zbekiston, 100027, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Qiyot massivi, 88-uy), hamidau@mail.ru

MAXSUMOVA Sadoqat Qosimjon qizi — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o’qituvchisi, PhD (O‘zbekiston, 100027, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Qiyot massivi, 88-uy), ms.maxsumova@gmail.com

OTAMURODOVA Mukarram Boturali qizi — O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o’qituvchisi, PhD (O‘zbekiston, 100027, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Qiyot massivi, 88-uy), mrs.mukarramotamurodova@gmail.com

ATAQULOVA E'tiqodxon Saloxiddinovna — O'zbekiston Jurnalistikha va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi (O'zbekiston, 100027, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Qiyot massivi, 88-uy), etiqodxon. otaqulova@jmcu.uz

THE IMPORTANCE OF THE WORLD PRESS FREEDOM INDEX IN ASSESSING INFORMATION POLICY

Abstract: The article examines the activities of the World Press Index of the Reporters Without Borders organization, which evaluates press freedom around the world. The main indicators of the index and their content were analyzed from the point of view of political, economic, social, legal and security. It was determined what methods are used in the ranking of countries for evaluating the activities of journalists. Information was collected about the results of the index for 2023, in particular, the result of Uzbekistan. Information about the team of experts evaluating the creation of the world press index was given. The activity of the index was assessed and promising proposals were developed to improve the rating of Uzbekistan.

Key words: International indices; freedom of information; World Press Freedom Index; methodology; Reporters Without Borders.

About the authors:

MURATOVA Nozima — DSc, Vice-rector for Research and Innovations, Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan. Tashkent city, Center-5, Kiyyot-88, nozima.muratova@jmcu.uz

TOSHPULATOVA Nazira Kurbanovna — professor, PHd, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Uzbekistan, 100027, Tashkent, Yunusabad district, Kiyot massif, 88), toshpolatovanazira81@gmail.com

MIRSULTANOVA Hamida Alisher kizi — PhD, headteacher, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Uzbekistan, 100027, Tashkent, Yunusabad district, Kiyot massif, 88), hamidau@mail.ru

MAXSUMOVA Sadoqat Qosimjon kizi — PhD, headteacher, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Uzbekistan, 100027, Tashkent, Yunusabad district, Kiyot massif, 88), ms.maxsumova@gmail.com

OTAMURODOVA Mukarram Boturali kizi — PhD, headteacher, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Uzbekistan, 100027, Tashkent, Yunusabad district, Kiyot massif, 88), mrs.mukarramatamurodova@gmail.com

ATAKULOVA E'tiqod Salohiddinovna — headteacher, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan (Uzbekistan, 100027, Tashkent, Yunusabad district, Kiyot massif, 88), etiqodxon.otaqulova@jmcu.uz

ЗНАЧЕНИЕ МИРОВОГО ИНДЕКСА СВОБОДЫ ПРЕССЫ В ОЦЕНКЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ

Аннотация: В статье анализируется методология Мирового индекса прессы организации «Репортеры без границ», который оценивает свободу прессы во всем мире. Основные показатели индекса и их содержание были проанализированы с точки зрения политической, экономической, социальной, правовой и безопасности. Определены методы, используемые в рейтинге стран для оценки деятельности журналистов. Собрана информация о результатах индекса за 2023 год, в частности, о результате Узбекистана. Представлена информация о команде экспертов, оценивающих создание мирового индекса прессы. Оценена деятельность индекса и разработаны перспективные предложения по улучшению рейтинга Узбекистана.

Ключевые слова: Международные индексы; свобода информации; Мировой индекс свободы прессы; методология; Репортеры без границ.

Об авторах:

МУРАТОВА Нозима Фахритдиновна — доктор филологических наук, проректор по научной работе и инновациям Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана; Ташкент, Центр-5, Киёт-88; nozima.muratova@jmcu.uz

ТОШПУЛАТОВА Назира Курбановна — профессор, кандидат наук, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан, 100027, г. Ташкент, Юнусабадский район, массив Киёт, 88), toshpolatovanazira81@gmail.com

МИРСУЛТАНОВА Хамида Алишер кизи — PhD, старший преподаватель, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан, 100027, г. Ташкент, Юнусабадский район, массив Киёт, 88), hamidau@mail.ru

МАКСУМОВА Садокат Косимджон кизи — PhD, старший преподаватель, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан, 100027, Ташкент, Юнусабадский район, массив Киёт, 88), ms.maxsumova@gmail.com

ОТАМУРОДОВА Мукаррам Ботурали кизи — PhD, старший преподаватель, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан, 100027, Ташкент, Юнусабадский район, массив Киёт, 88), mrs.mukarramatmurodova@gmail.com

АТАКУЛОВА Этикод Салохиддиновна — старший преподаватель, Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана (Узбекистан, 100027, г. Ташкент, Юнусабадский район, массив Киёт, 88), etiqodxon.otaqulova@jmcu.uz